

**SIYOB ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JST DA TASHKIL
ETILGAN KARERA MARKAZI FAOLIYATI**

MUXTAROVA NARGIZA TOXIROVNA

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Bugungi kunda ta'lim muassasamizda 2165 nafar talaba hamshiralik ishi, feldsher-akusherlik ishi, farmatsiya ,feldsher-laborantlik ishi , tibbiy profilaktika ishi kabi yunalishlarda tahsil olayotgan bo'lsa , ulardan 900 nafardan ortig'i bitiruvchilarni tashkil etadi. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-maydagi "Texnikumlarning Karera markazlarini yo'lga qo'yish to'g'risida" gi 184 son buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida muassasamizda Karera markazi tashkil etilgan va hozirgi kunda o'z faoliyatini olib bormoqda .



Kasbiy ta'lim tashkilotimizda har yil davomida bitiruvchilarimizning 90 foizga yaqini yurtimizdagи davolash profilaktika muassasalarida o'z sohalari bo'yicha ish o'rinalariga joylashib, mehnat faoliyatlarini olib borishmoqda . Karera markazida jamlangan markaz a'zolari bugungi kunda texnikumni bitirish arafasida turgan talabalarga doimiy ravishda ish beruvchilarni jalb qilgan holda bitiruvchi va ish beruvchilar o'rtasida uchrashuvlar , seminar treninglar tashkil etib kelmoqda .



Hozirga qadar davolash profilaktika muassasalari, ish beruvchilar , tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari bilan doimiy ma'lumotlar almashinib, shuningdek bitiruvchilar ishga joylashishda vakand joylarga munosib nomzodlarga tavsiyalar asosida ishga joylashish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda . Markaz rahbari Mexmonqulova Sh.R va ishchi guruh tomonidan talabalar va ish beruvchilar o'rtasidagi talaba o'qishni tamomlagach ish bilan taminlanishi to'g'rida shartnomalar imzolanib bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha ishlar yo'lga qo'yilgan.